

O'zbekiston Prezidenti Milanga keldi



Rasmiy tashrif bilan Italiyada bo'lib turgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Rimdan Milan shahriga keldi.

"Malpense" aeroportida oliy martabali mehmonni Lombardiya viloyati rahbariyati kutib oldi.

Ertaga davlatimiz rahbari ushbu hudud gubernatori bilan uchrashadi hamda Italiyaning yetakchi kompaniya va tashkilotlari rahbarlari bilan davra suhbatini o'tkazadi.

"ITMA 2023" to'qimachilik mashinasozligi bo'yicha eng yirik xalqaro ko'rgazmaga tashrif buyurilishi ham rejalashtirilgan.



Manba